AKUSHERLIK MAKTABLARIGA OID MA’LUMOTLAR (O‘ZBEKISTON MILLIY ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA)

Salomova Lutfiya Iskandar qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti “ Arxivshunoslik va manbashunoslik”kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: salomovalutfiya9@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkistonda XX asrning 20-yillarida tashkil etilgan akusherlik maktablari va tibbiyot kurslarining faoliyati yoritilgan. Xususan, Toshkent akusherlik kurslari, ulardagi ta’lim tizimi, o‘quv dasturlari hamda mahalliy aholi uchun tibbiy kadrlar tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Asfandiyorov va boshqa mutaxassislarning tibbiyot sohasini rivojlantirishdagi hissasi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlariga asoslangan holda Turkistonda sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Akusherlik maktablari, Turkiston ASSR, tibbiy ta’lim, mahalliy kadrlar, Asfandiyorov, akusherlik kurslari, sog‘liqni saqlash, tibbiyot maktablari, feldsherlik maktabi, tibbiy xizmat.

Asosiy qism

Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish va tibbiy xizmat sifatini yaxshilash dolzarb masalalardan biri edi. Ayniqsa, mahalliy aholi orasida malakali tibbiyot xodimlarining yetishmasligi katta muammo sifatida namoyon bo‘ldi. Shu sababli o‘lkada turli tibbiyot maktablari va akusherlik kurslari tashkil etildi.

Toshkent akusherlik kurslari ana shunday muassasalardan biri hisoblanadi. Ushbu kurs ikki yillik bo‘lib, unda bir qator tibbiyot mutaxassislari dars mashg‘ulotlarini olib borishgan. Hujjatlarda ko‘rsatilishicha, Asfandiyarov, Nikifirov, Shvars, Fridman, V.Shishovlar dars berishgan. Shunday kurslardan biri Toshkent shahrining eski shahar qismida faoliyat olib borganligi haqida ham hujjatda ma’lumot berib o‘tilgan. Kursda dasrlar rus tilida o‘tilgan bo‘lib, kurs talabalari yevropa millati va mahalliy aholi vakillaridan iboart bo‘lgan. Mahalliy aholi vakillari uchun darslarni tarjima qilish uchun kursda tarjimon shtati joriy etilganligi haqida ma’lumot berib o‘tilgan. Kurs talabalari o‘qishning 1 yilidan amaliyot o‘tashni boshlashgan va bitirish vaqtida biror bir tug‘ruqxonada amaliyot o‘tab, mustaqil bitiruv ishi toprishlari lozim bo‘lgan. R-40-fond hujjatlarida Eski shaharda o‘rta-tibbiyot maktabi hamda eski va yangi shaharda Akusherlik maktablarini ochish bo‘yicha Turkiston Sog‘liqni saqlash xalq komissarligining Hay’at yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan. Yig‘ilishda bayonnomasida ma’lumot berilishicha, 1920-yil 25 yanvardagi “Eski shaharda o‘rta-tibbiyot maktabi hamda eski va yangi shaharda Akusherlik maktabining 2 ta bo‘limini ochish” bo‘yicha so‘rovnomasiga asosan TASSR Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi Hay’at Kengashi a’zolari Asfandiyorov, Galinovskaya, Fridman, Shvars, Shishova, Shoroxov va Mirzaxanovlar ishtirokida bir qator qarorlar qabul qilingan.

- Eng avvalo Turkiston shart-sharoitda akusherlik kurslarini ochish imkoniyati (Yangi va eski shahar qismida akusherlik maktabining 2 ta bo‘limini ochish hamda eski shahar bo‘limida mashg‘ulotlar o‘zbek tilida olib borish shart etib beligilangan.
- Shuningdek o‘qishga qabul shartlari (eski shahar qismidagi yaxshi tarbiya olgan 16-35 yoshli musulmon ayollardan, yangi shahar qismidan boshlang‘ich 4 yillik kurslarni bitirgan 18-35 yoshdagi kasbga ham ruhiy va jismoniy sog‘lom bo‘lganlar qabul qilinishi); qatiy belgilangan.

- Qabul qilingan qarorga kurs davaomiyligi ham ko‘rilgan hujjatda (2 yildan kam bo‘lmagan muddatda ta’lim olishlari, bitirganlik guvohnomasini olgach yarim yil davomida qabul bo‘limiga 20-25 bemorni qabul qilshida yordamchi sifatida ishlashlari, kurs davomda 1 yil amaliyot o‘tashi, qolgan 1 yilda tug‘ruq bo‘limida bolalar parvarishi va akusher yordamchisi sifatida amaliyot o‘tashlari shart qilib belgilansin);
- Shuningdek kurs dasturi (kursning asosiy dasturlari Rossiya akusherlik maktbi kurslaridan olinishi, eski shahar qismidagi musulmon ayollari bo‘limi uchun dasturga qisman o‘zgartirishlar kiritilishi); Tinglovchilarni moddiy ta’minoti Barcha tinglovchilar stependiya va oziq-ovqat bilan ta’minlanadi Tinglovchilar ishlagan vaqtlarida ish kiyimi, ichki va oyoq kiyimlar berilishi 10-15 kishilik yotoqxona tashkil qilinishi ham belgilangan.
- Keying qarorida Oldindan o‘quvchilarni ro‘yhatga olish (akusherlik kursiga xoxishi borlarni qabul qilish. Eski shahar qismiga musulmon gazetalari orqali e’lon berish, shuningdek, Mirzaxonov O‘lka Musulmonlar byurosi orqali o‘rta yoshdagi ayollarni ish bilan ta’minlashni tushuntirish ishlarini olib borish ham yuklatilgan);
- Maktabdagi kengash qarorida eski shahar qismida Shifokor yordamchisi maktabini tashkil etish haqida (1 fevrladan kechiktirmagan holda doktor Shvars, Mirzaxonov va Asfandiyorovlar Turk bo‘limi (aniqlik kiritish kerak) rahbari Munavvarqori Abdurashidxonovga taklif sifatida yetkazish belgilangan).

Turkistonda 1920-yillarda meditsina sohasida mahalliy kadrlar yetishmasligi eng katta muammolardan biri ekanligini anglagan Asfandiyorov mahalliy aholi vakillarini o‘qitish masalasiga alohida etibor qaratgan. Chunki, o‘lkada Rassiya xududlaridan kirib faoliyat olib borayotgan shifokorlarning aksariyati o‘zbek tilini bilmasligi sababli va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda muammolar bo‘lgan.

Kadrlar yetishmovchiligi o‘lkadagi sog‘liqni saqlash sohasidagi eng og‘riqli muammolardan biri edi. O‘z navbatida ushbu muammoning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan maktablar va kurslar bitiruvchilar hisobiga yechishga xarakat qilingan. Ammo bu ham vaqt talab etar edi. Komissarlik kadrlar yetishmovchiligi haqida ham o‘zlarining ayrim hisobotlarida aniq ma’lumotlar berib o‘tishgan.

1920-yili bir yo‘la 3 ta, ya’ni, 40 kishiga mo‘ljallangan o‘lka musulmon feldsherlik maktabi, musulmon akusherlik maktabi (25 kishiga mo‘ljallangan), hamshira-tarbiyachilar maktabi (20 kishiga mo‘ljallangan), aholining yevropalik qatlami uchun akusherlik maktabi ochildi. Ayollar akusherlik maktabini tashkil etishda Peterburg ayollar tibbiyot akademiyasi bitiruvchisi Gulsum Asfandiyorovaning xizmati katta bo‘ldi. Uning o‘zi maktabda “Homilador ayollar fiziologiyasi” fanidan talabalarga mashg‘ulot olib bordi. Ammo tibbiyot maktablarida mahalliy aholi vakillari va yevropaliklar alohida o‘qitildi. 1922-yilga kelib o‘lkada tibbiyot maktablari soni 13 taga yetgan

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda tashkil etilgan akusherlik maktablari va tibbiyot kurslari sog‘liqni saqlash tizimini taashkil etilishiga kata hissa qo‘shdi. Ushbu ta’lim muassasalari orqali mahalliy aholiga tibbiy bilim berish, ayollarni tibbiyot sohasiga jalb qilish hamda malakali kadrlar tayyorlashga kirishildi. Ammo ko‘rilgan choralar samarali bo‘lgan bo‘lsada kadirlar masalasi o‘z yechimini topmadi. Ayniqsa, Asfandiyorov va uning safdoshlari tomonidan amalga oshirilgan tashabbuslar Turkistonda zamonaviy tibbiy ta’lim tizimining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zMA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 55-57-yig‘majild,
2. O‘zMA, R-21-fond, 1-ro‘yxat, 171-yig‘majild,
3. Choriyev, Sh.Sh. (2019). Archival documents on the healthcare system of the Turkestan ASSR.

4. Salomova, L. I. (2021). Types of documents on the history of the Turkestan

century kept in the national archives of Uzbekistan. current research journal of history,

5. Salomova, L. (2026). A Source-based analysis of the activities of the healthcare system by provinces in the territory of the Turkestan ASSR